

BANKLARNING KELIB CHIQISHI VA BANK TIZIMLARI

O`qituvchi: Norqulov Habibullo

Talaba: Istamov Dostonbek

Annotatsiya: *Ushbu maqolada banklarning kelib chiqishi, rivojlanishi va bank tizimlarining shakllanishi haqida keng qamrovli tahlil qilinadi. Banklar tarixan savdo va moliyaviy operatsiyalarni osonlashtirish, pulni saqlash va o'zaro to'lovlarni amalga oshirish uchun tashkil etilgan. Maqola bank tizimlarining shakllanishi, ularning turli davrlarda qanday o'zgargani va zamonaviy bank tizimlarining xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, maqolada banklarning iqtisodiy o'sish va rivojlanishdagi o'rni, ularning o'zaro aloqalari va jamiyatdagi roli ham ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *banklar, bank tizimi, kelib chiqish, moliya, iqtisodiyot, bank operatsiyalari, zamonaviy banklar, iqtisodiy o'sish.*

Абстрактный: *В данной статье дан комплексный анализ зарождения, развития и становления банковских систем. Банки исторически создавались для облегчения торговых и финансовых операций, для хранения денег и осуществления взаимных расчетов. В статье рассматривается формирование банковских систем, их изменение в разные периоды и особенности современных банковских систем. В статье также рассматривается роль банков в экономическом росте и развитии, их взаимосвязи и роль в обществе.*

Ключевые слова: *банки, банковская система, происхождение, финансы, экономика, банковские операции, современные банки, экономический рост.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the origin, development, and formation of banking systems. Banks have historically been established to facilitate trade and financial transactions, store money, and make mutual payments. The article examines the formation of banking systems, how they have changed over time, and the characteristics of modern banking systems. The article also examines the role of banks in economic growth and development, their relationships, and their role in society.*

Keywords: *banks, banking system, origin, finance, economics, banking operations, modern banks, economic growth.*

KIRISH

Banklar va bank tizimlari insoniyat tarixida eng muhim iqtisodiy institutlardan biri bo'lib, ular butun dunyo iqtisodiyotining asosi hisoblanadi. Banklar o'z faoliyatini boshlaganidan beri, ular nafaqat moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishda, balki iqtisodiy o'sish, barqarorlik va rivojlanishning ajralmas qismi sifatida o'z o'rnini topgan. Banklar savdo operatsiyalarini osonlashtirish, pulni saqlash va kredit berish kabi vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan. Ularning rivojlanishi uzoq vaqt davomida iqtisodiyotning turli bosqichlariga mos ravishda shakllandi va bugungi kunda yanada murakkab, global tizimga aylanishga erishdi.

Bank tizimi nafaqat savdo va investitsiya operatsiyalarini amalga oshirishda, balki davlatlarning moliyaviy siyosatini amalga oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Banklar, shuningdek, xalqaro to'lov tizimlarini yaratish, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun banklarning kelib chiqishi, rivojlanishi va zamonaviy bank tizimlarining tuzilmasi haqida chuqur tahlil qilish iqtisodiyot va moliya sohasida ishlayotgan mutaxassislar, talabalar va keng auditoriya uchun zarurdir.

Ushbu maqolada banklarning kelib chiqishi, ularning evolyutsiyasi va bank tizimlarining bugungi kundagi shakllanishi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqolada banklarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va roli, shuningdek, bank tizimlarining kelajagi va uning yangi texnologiyalar bilan o'zgarishi ham ko'rib chiqiladi. Maqsadimiz banklar va bank tizimlari haqidagi ilmiy tushunchalarni rivojlantirish, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini yaxshiroq tushunish va zamonaviy bank tizimlarining imkoniyatlari hamda muammolarini tahlil qilishdir.

Banklarning paydo bo'lishi va ularning pul-tovar munosabatlarini rivojlantirishdagi o'rni

«Bank» so'zi italyanча «banko» so'zidan olingan bo'lib, pul muomalasi va kredit munosabatlari amalga oshiriladigan «stol», «peshtaxta», «kursi» ma'nolarini bildiradi. Banklar dastlab G'arbiy Evropaning Genuya, Florensiya va Venesiya shaharlarida o'rta asrlarda paydo bo'lgan.

Banklarning paydo bo'lishiga asosiy sabab, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovар-pul munosabatlarining mavjudligi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda ham banklarni faoliyat ko'rsatishlarini taqozo qiladi.

Banklarni paydo bo'lishiga asosiy sabablardan quyidagilarni ko'rib chiqamiz:

1. Ma'lumki, qadimda kishilar ancha tarqoq, bir-birlaridan uzoqda yashaganlar. Ular turli urushlar, bosqinchilik va talonchilik natijasida ko'p jabrlanganlar. Dastlabki banklar ana shu zamonlarda paydo bo'lgan. Ular yirik shaharlar, aholi kechayu-kunduz gavjum bo'ladigan bozorlar, karvonsaroylar, ibodatxonalar va portlarda mustahkam binolarda joylashganlar. Puldorlar o'z pullari va boyliklarini ma'lum haq to'lash evaziga ana shu banklarda saqlaganlar. Ana shunday tarzda banklarning birinchi-pulni saqlash operatsiyalari vujudga kelgan.

2. O'rta asrlarda yirik davlatlar juda kam, aksincha, mayda feodal davlatlar – knyazlik, graflik, xonlik, amirlik va shu kabilar juda ko'p bo'lgan. Har bir hukmdor taxtga o'tirgach, birinchi navbatda o'z nomidan tanga zarb etgan. Bu tangalar avvalgilaridan o'zgacha bo'lgan. Ana shu sababli savdo-sotiqda turli-tuman tangalar ishlatilgan. Ular bir-birlaridan vazni, shakli, ko'rinishi va tarkibi jihatidan farq qilganlar. Bu tangalarning haqiqiyliigi, tarkibi va qiymatini aniqlash, ularni bir-biriga taqqoslash, shuningdek, almashtirish zarurati tug'ilgan. Bu vazifalarni dastlab sarroflar, Keyinroq esa banklar bajara boshlaganlar. Pul almashtirish qadimiy banklarning ikkinchi operatsiyalaridir.


3. Pul saqlash va almashtirish bilan shug'ullanish natijasida banklarda katta miqdorda pul mablag'lari jamg'arila borgan. Ammo bu pullar harakatsiz yotgan. Asta-sekin bank egalari bu pullarni ma'lum haq evaziga o'z nomlaridan qarzga bera boshlaganlar. Qarzni o'z muddatida qaytarilishini kafolatlash uchun qarz oluvchining mol-mulki (uy-joyi, eri, kemalari

va boshqalar) garovga olingan. Ana shunday tarzda banklarning uchinchi operatsiyalari, ya'ni, kredit operatsiyalari kelib chiqqan. Endi banklar sudxo'rlik bilan ham shug'ullana boshlaganlar.

4. Ma'lumki, bank egasi tomonidan bankka pul qo'ygan har bir kishining pul qo'yishi va olishi hisob-kitobi «temir daftarda» olib borilgan. Shunday hollar ham bo'lganki, bir-biri bilan savdo-sotiq yoki «oldi-berdi» qiluvchi ikki va undan ortiq kishilar bir bankda o'z pullarini saqlaganlar. Ular har safar bankdan naqd pul olishlari, o'zaro hisob-kitob qilgandan so'ng, uni yana qaytarib bankka qo'yishlari lozim bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, bank egasi erto'ladagi sandiqlarni ochib, pulni egasiga bergan, u esa o'z navbatida ikkinchi kishiga bergan. Ikkinchi kishi esa pulni yana bankka qo'ygan, ya'ni sertashvish «pulni shamollatish operatsiyasi» o'tkazilgan, xolos.

Bu ovoragarchilikdan ko'ra, bank egasi tomonidan «Temir daftar» dagi pul beruvchining pulini ma'lum miqdorga kamaytirib, pul oluvchilikiga qo'shib qo'ysa bo'ladiku! Ana shunday qilib kishilar banklar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar qila boshlaganlar.

Ko'rib chiqqanimizdek, qadimgi banklarning dastlabki operatsiyalari quyidagicha rivojlangan:



Hozirgi banklar o'z mijozlariga bir necha yuzlab turdagi xizmatlar ko'rsatmoqdalar. Endi ular qadimiy sarroflarning ko'rimsiz do'konchalari-yu, sudxo'rlarning yarim qorong'i uylariga sira o'xshamaydilar. Ular katta-kichik shaharlarning eng muhtasham binolarida joylashganlar, u erda eng zamonaviy jihozlar o'rnatilgan bo'lib, maxsus ma'lumotlarga ega bo'lgan minglab mutaxassislar ishlashadi.

Banklarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni beqiyosdir. Ularni bejiz «iqtisodiyot qon tomirlari» yoki «iqtisodiyot lokomotivlari» deb aytishmaydi.

12.2. Bank tushunchasi. Bank bo'limlari (filiallari) va vakolatxonalari. Banklarning kredit tizimidagi o'rni va asosiy vazifalari

Bank deb, pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit va hisob-kitoblar, shuningdek, boshqa har xil vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelida qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonuniga ko'ra:

Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan, quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investisiyalash uchun foydalanish;

- to'lovlarni amalga oshirish.

Chet el banki – Chet el banking o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan sho‘ba banki bo‘lib, uning ustav kapitalining hammasi chet el banki tomonidan to‘lanadi.

Banklar O‘zbekiston Respublikasida o‘z filiallarini, Chet el banklari esa o‘z vakolatxonalarini Markaziy bankning ruxsati bilan ochishlari *mumkin*.

Bank filiali – uni tashkil etgan bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi alohida bo‘linmadir.

Chet el banki vakolatxonasi – bank faoliyatini amalga oshirmagan holda, bankning manfaatlarini ko‘zlab ish yurituvchi alohida bo‘linmadir.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqqan holda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

«Bank filiali» va «Bank bo‘limi» mohiyatan bir xil tushuncha bo‘lib, ular mijozlar uchun bank operatsiyalarini amalga oshiradilar, ya’ni bank faoliyati bilan shug‘ullanadilar.

Bank vakolatxonalari esa bank faoliyati bilan shug‘ullanmaydilar, balki o‘zlarining bosh banklari manfaatlaridan kelib chiqqan holda, mamlakat iqtisodiyotini o‘rganadilar, tahlil etadilar, turli hisobotlar tuzadilar, o‘zlarining taklif va xulosalarini bosh bankka taqdim etadilar.

Banklar kredit tizimining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- jamiyatdagi bo‘sh pul mablag‘larini yig‘ish va jamlash, ularni kredit va investisiyalar sifatida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sarflash, ya’ni harakatdagi kapitalga aylantirish;

- to‘lovlarda vositachilik qilish. Banklar o‘z mijozlarining topshiriqlariga asosan to‘lovlarni amalga oshiradilar, mablag‘larini hisob varaqlar(schyot)iga qabul qiladilar, pul tushumlarini hisobga oladilar, mijozlarga naqd pul mablag‘larini beradilar va boshqalar;

- muomalaga kredit vositalari, turli qiymatli qog‘ozlarni chiqarish, sotish va sotib olish hamda boshqalarni amalga oshirish;

- chet el valyutasi bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirish va boshqalar.

XULOSA

Banklarning kelib chiqishi va bank tizimlarining rivojlanishi insoniyatning moliyaviy tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Banklar o'z vaqtida iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlab kelgan va bugungi kunda yanada murakkablashgan tizimga aylangan. Ularning iqtisodiy tizimdagi roli va iqtisodiy o'sishga bo'lgan ta'siri juda katta. Banklar nafaqat zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi, balki dunyo miqyosida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institutlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Blanchard, O. (2017). *Macroeconomics* (8th ed.). Pearson.
2. Mishkin, F. S. (2015). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets* (10th ed.). Pearson.
3. Davis, E. P. (2000). *Financial Systems in Crisis: The Role of Banks and Financial Markets*. Cambridge University Press.
4. Allen, F., & Gale, D. (2007). *Understanding Financial Crises*. Oxford University Press.
5. Gorton, G. (2010). *Slapped by the Invisible Hand: The Panic of 2007*. Oxford University Press.
6. Charles P. Kindleberger. (2005). *Manias, Panics, and Crashes: A History of Financial Crises*. Wiley.
7. Артикова Ш. МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 44. – С. 109-111.
8. Артикова Ш. МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 44. – С. 109-111.
- 9.
- 10.
11. Артикова, Ш. (2024). МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ. Академические исследования в современной науке, 3(44), 109-111.
12. Артикова, Ш. (2024). МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ОЦЕНКЕ ВЕЖЛИВОСТИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕКСТОВ. Академические исследования в современной науке, 3(44), 109-111.
13. Артикова Ш. М. Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия //International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London). – 2024. – Т. 8. – С. 98-101.
14. Артикова, Ш. М. (2024, October). Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия. In International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London) (Vol. 8, pp. 98-101).
15. Артикова, Ш. М. (2024, October). Вежливость В Семейной Риторике Узбекистана И Англии: Культурные Различия. In International Conference on Linguistics, Literature And Translation (London) (Vol. 8, pp. 98-101).
16. Shaxnoza A. PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN //Journal of Modern Educational Achievements. – 2022. – Т. 1. – С. 33-38.

17. Shaxnoza, Artikova. "PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN." *Journal of Modern Educational Achievements* 1 (2022): 33-38.
18. Shaxnoza, A. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1, 33-38.
19. Artikova, Shaxnoza Maxamadovna. "О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН." *Theoretical & Applied Science* 5 (2020): 79-83.
20. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. *Theoretical & Applied Science*, (5), 79-83.
21. Artikova S. M. О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН // *Theoretical & Applied Science*. – 2020. – №. 5. – С. 79-83.

-